

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIVALAR VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yhatga olindi № **03/03/042**

“27” iyun 2024 yil



O.SH.Bazarov

2024 yil

OLIY GEODEZIYA

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: **700 000** – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'lim sohasi: **720 000** – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari

Ta'lim yo'nalishlari: **60722500** - Geodeziya, kartografiya va kadastr (qurilish)

Fan modul kodi OG3608	O'quv yili 2024-2025	Semestr 5-6	ECTS - Kreditlar 4-4
Fan/modul turi Majbuliy	Ta'lif tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4-4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'uotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
Oliy geodeziya	120	120	240

I. Fanning mazmuni

Fanni o'rgatishdan maqsad talabalarda "Oliy geodeziya" fanining asosiy geodezik ishlari bo'limidagi yuqori aniqlikdagi geodezik o'lchashlarda qo'llaniladigan geodezik asboblarning tuzilishini, ishlash prinsipini, ularni tekshirishni va sozlashni hamda tadqiq qilishni va ularni muayyan sharoitlarga mos holda tanlash va o'lchash usullari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bo'lgan ko'nikma va malakan shakllantirishdir. Fanning vazifasi - talabalarga "Oliy geodeziya" fanining asosiy geodezik ishlari bo'limidagi Davlat geodezik to'rlarini barpo etishda qo'llaniladigan zamonaviy geodezik asboblarning tuzilishini, ishlash prinsipini va ularni tekshirish, sozlashni va Davlat geodezik to'rlarini tenglashtirish usullarini o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'uotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 3-kurs

1-Mavzu. Kirish. Oliy geodeziya haqida umumiy ma'lumotlar. Yerning shakli va keltirish sirtlari.

Kirish. Og'irlilik kuchi va Yerning sathiy yuzasi. Geoid va kvazigeoid. Umumiy yer ellipsoidi.

2-Mavzu. Nisbiy yuza. Reduksion masala. Krassovskiy referens ellipsoidi.

Geodezik va astronomik koordinatalar va azimutlar. Shovun chizig'ini og'ishi. Laplas azimuti. Reduksion masala to'g'risida tushuncha.

3-Mavzu. Tayanch geodezik tarmoq. Davlat geodezik tarmog'i.

Geodezik tarmoqlar. Ularning ahamiyati. Davlat geodezik tarmog'i punktlarining barpo etishning asosiy prinsipi. Davlat geodezik tarmog'i punktlarining yozilishi. Davlat geodezik tarmog'i barpo etishning zaruriy aniqligi

4-Mavzu. Davlat geodezik to'rlarini barpo etishning asosiy usullari.

Davlat geodezik tarmog'i barpo etishning asosiy usullari. Tayanch

geodezik tarmoq barpo etishning boshqa usullari. Davlat triagnulyatsiyasini barpo etishda F.N. Krasovskiy taklif etgan sxema va dasturi. Davlat geodezik tarmog'i takomillashtirishning istiqbolli yo'llari.

5-Mavzu. Geodezik to'rlar va ularni rekognossirovka qilish. Geodezik belgilari va markazlari.

Geodezik to'rlarini loyihalash to'g'risida umumiy ma'lumot. Geodezik belgilari. Geodezik punktlarning markazlari.

6-Mavzu. Yuqori aniqlikda burchak o'lchash. Yuqori aniqlikdagi optik teodolitlar.

Joyda burchak o'lchash jarayoni. Teodolit va ularning tuzilishi. Optikaviy teodolitlar. Teodolitning o'rnatish qismlari. Teodolitning ishechi qismlari. Yuqori aniqlikdagi teodolitlarni ekspluatatsiya qilish sharoitlari. Ularga bo'lgan asosiy talabalar. Ulardan foydalanish tartib qoidalari. Yuqori aniqlikdagi teodolitlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Yuqori aniqlikdagi teodolitlarning geometrik sxemasi. Yuqori aniqlikdagi teodolitlarning o'qiy sxemasi va adilaklari. Yuqori aniqlikdagi optik teodolitning limbi. Yuqori aniqlikdagi optik teodolitning qarash trubasi. Optik teodolitning sanoq olash qurilmasi. Birlashtirib sanoq olish prinsipi.

7-Mavzu. Yuqori aniqlikdagi teodolitlarni tadqiq qilish.

Yuqori aniqlikdagi teodolitlarni tekshirish va tadqiq qilish. Optik mikrometr renini aniqlash. Optik mikrometr shkalasining xatoligi. Alidada va limb eksentrisitetini aniqlash. Teodolitning gorizontal va vertikal o'qlarining perpendikulyar emasligini aniqlash.

8-Mavzu. Yuqori aniqlikda burchak o'lchash usullarni va nazariysi.

Umumiy tushunchalar. Punktda teng aniqlikdagi yo'nalishlarni olish sharti. Doiraviy priyom usuli.

9-Mavzu. Zamonaviy elektron taxeometrlar.

Zamonaviy elektron taxeometrlarlar haqida tushuncha. Zamonaviy elektron taxeometrlarning qo'llanilishi.

10-Mavzu. Burchak o'lchashda va azimutal aniqlashda yorug'lik refraksiyasi. Yon tomon refraksiyasi.

Yorug'lik refraksiyasi. Metrologik elementlar bilan refraksiya burchagining bog'liqligi va ularning gradientlari harorat. Yon tomon refraksiyasi.

11-Mavzu. Yuqori aniqlikda bo'rechak o'lchashda xatolar manbai. Yuqori aniqlikda bo'rechak o'lchashda xatolar ta'sirini kamaytirish usullari.

O'Ichash va uning turlari. O'Ichash xatolari; muntazam, tasodifiy va qo'pol xatolar. Tasodifiy xatoning xossalari. Yuqori aniqlikda burchak anqlikdagi burchak o'Ichashda asbob xatoligi. Qarash trubasi o'qining azimutal siljishi, ko'tarish vintlarining lyufti, teodolitning harorat o'zgarishi tufayli deformasiyasi. O'Ichash natijalariga tashqi muhitning ta'siri.

12-Mavzu. GPS va GLONASS su'niy yo'nalishli navigatsion tizimlari.

Umumiy ma'lumotlar. Su'niy yo'ldosh geodezik tarmoqlarini rivojlantirish usullari va texnologiyalari. Koordinatalarni aniqlashning nisbiy usuli. Koordinata va balandlik tizimi, DGT ning yangi sturukturasi.

13-Mavzu. Davlat geodezik to'rlarini barpo etishda su'niy yo'ldosh orqali o'Ichashlarni bajarish usullari.

GPS va mahalliy koordinatalari sistemalari. Su'niy yo'ldosh o'Ichashlarni matematik asosi. Joy ob'ektlari koordinatalarini aniqlash usullari. Nuqtalar koordinatalarini transformatsiyalash. Su'niy yo'ldosh priyomniklari.

14-mavzu. Yuqori aniqlikdagi geometrik va trigonometrik niveliplash. Davlat niveliplash to'rlari.

Niveliplash turlari. Ularning ahamiyati. Zamonaviy niveliplash to'ri. Yuqori aniqlikda niveliplashni rivojlantirishning istiqbollari

15-mavzu. Niveliplash yo'llarini loyixalash, rekognossirovka qilish va joylarda mahkamlash.

I va II klass niveliplash yo'llarini loyihalash. I va II klass niveliplash yo'llarini rekognossirovka qilish. Niveliplash yo'llarini joylarda mahkamlash. Niveliplash yo'llarini gravimetrik ta'minlash.

16-mavzu. Yuqori aniqlikdagi niveliirlar va invar reykalar. Yuqori aniqlikdagi niveliirlarning geometrik sxemasi.

Yuqori aniqlikdagi niveliirlarga bo'lgan asosiy talablar. Yuqori aniqlikdagi invar reykalarga bo'lgan asosiy talablar. Yuqori aniqlikdagi niveliirlarning geometrik sxemasi va asosiy qismlari. Adilakli yuqori aniqlikdagi niveliirlar. Kompensatorli yuqori aniqlikdagi niveliirlar. Niveliplash invar reykalari.

17-mavzu. Yuqori aniqlikdagi niveliirlarni tadqiq qilish. Kompensatorli niveliirlarni tadqiq qilish.

Adilakli niveliirlarni tadqiq qilish dasturi. Yuqori aniqlikdagi niveliirlarning kontaktli adilagini tadqiq qilish. Optik mikrometr ishlashini tadqiq qilish. Nivelirning elevatsion vintining ishlashini va qarash trubasini fokuslovchi linzasining to'g'ri yurishini tadqiq qilish.

18-mavzu. Zamonaviy elektron niveliirlar.

Zamonaviy elektron niveliirlar. Zamonaviy elektron niveliirlarning ishlash prinsiplari.

19-Mavzu. Geometrik yuqori aniqlikda niveliplashda xatolar manbai va ular ta'sirini kamaytirish usullari.

Geometrik niveliplashda shaxsiy xatolik. Geometrik niveliplashda asbob xatoligi. Invar reyka xatosining ta'siri. Tashqi muxit ta'siri. Niveliplash refraksiyasi. Shtativ va qoziqlarning vertikal siljishi.

20-Mavzu. Yer yuzasining gidrotermik harakati.

Yer yuzasining gidrotermik harakati. Quyosh va Oyning ta'siri tufayli nisbiy balandlikning o'zgarishi. Yuqori aniqlikda niveliplash natijalariga tektonik va boshqa hodisalarning ta'siri.

21-Mavzu. Yuqori aniqlikda niveliplash usullari.

I klass niveliplash usuli va dasturi. II klass niveliplash usuli va dasturi. Tog'li hududlarda, yirik shaharlarda yuqori aniqlikda niveliplashning xususiyatlari.

22-Mavzu. Trigonometrik niveliplash haqida umumiy tushuncha. Bir va ikki tomonlama trigonometrik niveliplashda geodezik balandliklar farqini hisoblash.

Umumiy ma'lumotlar. Trigonometrik niveliplashni hisoblash. Bir tomonlama trigonometrik niveliplashda geodezik balandliklar va normal balandliklar farqini hisoblash. Ikki tomonlama trigonometrik niveliplashda geodezik balandliklar va normal balandliklar farqini hisoblash.

23-Mavzu. Geodezik to'rlarni korrelat va parametrik usul bilan tenglashtirish. Triangulyatsiyada shartli tenglamalar soni. Triangulyatsiyada mustaqil shartli tenglamalar soni. Trilateratsiyada shartli tenglamalar soni. Shartli tenglamalar ozod hadlarining chekli qiyamatlarini aniqlash. Tenglashtirish hisoblarining ketma-ketligi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy amaliy mashg'ulot mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, talabalar geodezik asboblar bilan tanishib ularni tuzilishini o'rganadilar, asboblar bilan o'ichov ishlarini bajarib natijalarini matematik ishlovini bajarish, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, masalalar yechish, normativ-huquqiy

hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- Oliy geodeziya haqida umumiylar ma'lumotlar. Yerning shakli va keltirish sirtlari.
- Krasovskiy referens-ellipsoidi
- Davlat geodezik tarmog'i
- Geodezik belgililar balandligini hisoblash
- Triangulyatsiya va trilateratsiya aniqligining hisoblari
- Yuqori aniqlikdagi teodolitlarini tadqiq qilish
- Yuqori aniqlikdagi optek teodolitlarning adilaklari. Limbi
- Yuqori aniqlikda doiraviy priyomlar usulida gorizontal burchak o'ichash
- Yuqori aniqlikda barcha kombinatsiyalarda gorizontal burchak o'ichash
- Zamonaviy elektron taxeometrlar
- Triangulyatsiyada dastlabki hisoblarini bajarish
- Triangulyatsiyaini korrelat va parametrik usulda tenglashtirish
- Trilateratsiyani parametrik usul bilan tenglashtirish
- Davlat nivelirlash to'rlari. Yuqori aniqlikda va trigonometrik nivelirlash
- Nivelirlash yo'llarini loyixalash, rekognossirovka qilish va joylarda mahkamlash
- Yuqori aniqlikdagi nivelirlar va invar reykalar
- N-05 nivelirining ishslash prinsipini o'rganish
- Yuqori aniqlikdagi adilakli va kompensatorli nivelirlar
- Invar reykaning tuzilishi, ishslash prinsipini o'rganish
- Yuqori aniqlikdagi nivelirini tekshirish va sozlash
- Kompensatorli nivelirlarni tadqiq qilish
- I-klass nivelirini bajarishni o'rganish
- II-klass nivelirini bajarishni o'rganish
- Tog'li hududlarda va yirik shaxarlarda yuqori aniqlikda nivelirlashning hususiyatlari
- II-klass nivelirlash natijalarini hisoblash
- Yuqori aniqlikda nivelirlash natijalarining aniqligini baholash

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhg'a bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlari.

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

V. Kurs ishini tashkil etish boyicha uslubiy ko'rsatmalar.

Kurs ishi tasdiqlangan o'quv rejada ko'zda tutilgan ta'lim yo'nalishlarida bajariladi.

Kurs ishi muayyan mavzu boyicha umumiylar yaxlitlikka ega ilmiy – amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihibiy ish hisoblanadi. Kurs ishida mashtabda planga olish geodezik asos yaratishiga doir masalalari aks ettirish talab etiladi.

Kurs ishini maqsadi talabalarini mustaqil ishslash qobiliyatini rivojlantirishdir. Olgin nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi real sharoitlarga mos texnik echiimlar qabul qilish, texnika va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir.

Kurs ishining mavzusi boyicha har bir talabaga alohida xududlar ajratiladi va shaxsiy topshiriq beriladi. Bevosita topografik – geodezik ishlab chiqarish koordinatalarining texnologik jarayonlariga bog'liq holda, aniq bir geodezik sharoit uchun belgilangan.

Kurs ishining hisob – chizma ishlari zamonaviy kompyuter dasturlarida bajariladi.

Kurs ishining taqribi yuzulishini to'g'ri shakllantirish talabaga uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish xamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ketma – ket bajarishga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzulishini to'g'ri ishlab chiqilishi talabaga izlashning oldiga qoyilgan maqsad hamda natijalarini aniq ifodalash, fikrlarni mantiqiy bayon etish usulbari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning saloxiyati hamda fan bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qiladi. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan vazifalarini taxlil qilish hamda muammolarni hal etishni qo'llagan holda reja tuzadi va shu asosida bajariladi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiylar qo'yiladi:

- muammoni bibliografik tahlil qilish;
- chizma va jadvallarni muayyan tizimga keltirgan holda rasmiylashtirish;
- fikrni ketma – ketlikda, muayyan izchillikda bayon qilish;
- kurs ishini qoyilgan talablar boyicha rasmiylashtirish;

Kurs ishiga tavsiya etiladigan mavzular

1. II – klass triangulyatsiya planli geodezik asosining aniqligini baholash.

2. Trilateratsiya planli geodezik asosining aniqligini baholash.

3.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba fandan mustaqil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish taysiya

etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

- mavzular bo'yicha konспект (referat, taqdimot) tayyorlash. Nazariy materialni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialiga diqqatni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Talaba konspakti turli nazorat ishlarga tayyorgarlik ishlarni osonlashtiradi, vaqtini tejaydi;
- o'qitish va nazorat qilishni avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash. Talabalar ma'ruza va amaliy mashgulotlar davomida olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlari tayyorgarlik ko'rishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar, o'z-o'zini nazorat qilish uchun test topshiriqlari va.b;
- fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash. Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular bo'yicha talaba tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillarlagi adabiyotlardan foydalanish rag'batlantiriladi;
- internet tarmog'idan foydalanish. Fan mavzularini o'zlashtirish uchun mavzu bo'yicha internet manbalarini topish, ular bilan ishslash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan rag'batlantiriladi;

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Chiziqli burchakli geodezik tarmoqni tenglashtirish.
2. Bir va ikki tomonlama trigonometrik nivellirlashni bajarishni va hisoblashni o'rganish.
3. Trilateratsiyani korrelat usulida tenglashtirish.
4. Davlat nivellirlash to'rlari.
5. Nivellirlash yo'llarini rekognosirovka qilish va joylarda mahkamlash.
6. Yuqori aniqlikdagi nivellirlash usullari.
7. Trigonometrik nivellirlash.
8. Triangulyatsiyada mustaqil shartli tenglamalar soni.
9. Tayanch stantsiya koordinatasи boyicha SK – 42 va WGS – 84 tizimida aniqlash.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VII. Ta'lif natijalari / Kasbiy kompetensiyalar

Talaba bilishi kerak:

Oliy geodeziya tushunchasi va yerning shakli, o'lchamlari va yerning gravitatsion maydoni to'g'risidagi umumiylar ma'lumot hamda geodezik va astronomik koordinata sistemalarni, reduksion masalalarni bilish tasavvurga bilimga ega bo'lishi;

Davlat planli balandlik geodezik to'rlarini barpo etish prinsip va usullari, yuqori aniklikda burchak o'lhash, yuqori aniqlikda nivellirlash hamda o'lhashni ta'sir etivchi xatoliklar manbaini aniqlash va ularni kamaytirish usullarini aniqlash, o'lhash natejalarini tenglashtirish ko'nikmalariga ega

bo'lishi;

Yangi ishlab chiqarilayotgan va ishlatalayotgan zamonaviy geodezik asboblarni tuzilishi, ularni aniq geodezik ishlarda samarali foydalanish, ularni tekshirish, tadqiq qilish va sozlash to'g'risidagi malakasiga ega bo'lishi kerak.

VIII. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:

4. • ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, geodezik asboblarda ishslash, olingen natijalarini ishslash)
- guruhlarda ishslash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyiham;
- jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyiham.

IX. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazoriy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahhil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

5.

Asosiy adabiyotlar

 1. Tashpulatov S. A. Muborakov X. M. Nazarov B. R. "Oliy geodeziya" TAQI 2014y
 2. Tashpulatov S.A., Kovalev N.V., Avchiev Sh.K. "Oliy geodeziya" TAQI 2004y
 3. I.F.Kushtin «Geodeziya» Uchebno-prakticheskoe posobiye. M. «Izdatelstvo PRIOR». 2001g.
 4. Instruksiya po nivelirovaniyu klassov I. II. III. IV. M.Nedra. 1994g.
 5. G'.N.Aliqulov, M.J.G'ofigirov, B.N.Jumanov. "Geodeziya" o'quv qo'llanma. Qarshi: "Intellekt" nashriyoti. 2021 y.
 6. M.J.G'ofigirov. "Geodeziya" darslik. Qarshi: "Intellekt" nashriyoti. 2023 y.
- 6.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh.M. "Tanjidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.,O'zbekiston". 2017 y. 102 bet.
8. Charles D. Ghilani, Paul R. Wolf. "Elementary Surveying" 2012
9. Qo'ziboev T. K. "Geodeziya" T. O'qituvchi 1975 y
10. Muborakov X "Geodeziya va kartografiya" T. O'qituvchi 2002 y
11. E.X.Ivakov, U.T.T.Tojiyev, G'.N.Aliqulov. "Muhandislik geodeziyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent "Innovatsion rivojlantirish nashriyoti"-2021

Axborot manbaalari

12. www.uzgashkliti.uz – O‘zbekiston Respublikasi muhandislik qidiruv ishlari, geoinformatika va davlat kadastr ilmiy-tadqiqot loyihalari instituti sayti.
 13. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarini ma’lumotlari milliy bazasi.
 14. www.geostart.ru
 15. www.geokniga.org
 16. www.ziyonet.uz
 17. www.Trimble.com
7. Fan dasturi – Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti Ilmiy Kengashining 202 yil “ ” –sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8. Fan modul uchun ma’sular:
- M.J.G‘ofirov - QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasи katta o‘qituvchisi
- J.Mirzayev - QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasи assistenti
9. Taqrizchilar:
- B.N.Jumanov – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasи katta o‘qituvchisi
- A.Jo‘rayev – O‘zdaverloyiha instituti “Qashvilerloyiha” bo‘linmasi loyiha bosh muhandisi